

Xushxabar - "O'zkimyosanoat" AJning o'z tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faoliyati yuqori baholandi!

// 29.03.2024

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/xushxabar-o-zkimyosanoat-ajning-o-z-tizimida-korrupsiyaga-qa>



Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan davlat organlari va tashkilotlari, jumladan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining 2023-yil davomidagi faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qilingan ishlarning qay darajada samarali amalga oshirilganligini reyting baholash natijalari e'lon qilindi.

Ahamiyatlisi, "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish borasida olib borilgan sa'y-harakatlar yuqori baholandi va Jamiyat 90 ball bilan "yaxshi" natijani qo'lga kiritdi.



"Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatida birinchi rahbarlarning irodasi namoyon qilinib, xodimlar va keng jamoatchilik bilan korrupsiyaga qarshi kurashishda tizimli muloqot yo'lga qo'yilgan" deyiladi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi xabarida.

"O'zkimyosanoat" AJ korrupsiyaga qarshi kurashishda tizimli ishlarini jadal davom ettiradi!

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati